



iScience®

CURRENT CHALLENGES OF MODERN SCIENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS

Issue 5(81)

**Pereiaslav
2023**

<https://buxdu.uz>



CURRENT CHALLENGES OF MODERN SCIENCE

LXXXI International scientific conference
26-27 May 2023

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS

ISSUE 5(81)

Pereiaslav

UDC 001 (082)

BBC 72я43

A43

ISBN 978-83-66216-63-1

Editorial board:

S. Kabakbayev

G. Musabekova

I. Smyrnov

O. Isak

Lyu Bincyа

A. Tykhon

G. Alieve-Kengerli

A. Aidosov

T. Lozova

O. Sydorenko

A. Egiazarian

Z. Aliev

K. Partoev

M. Baimukhamedov

M. Musabayeva

Z. Kabyrbekova

N. Kheladze

J. Talaspayeva

B. Chernov

V. Amrakhov

K. Mkrtchian

K. Bugaevskiy

N. Iaronova

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Doctor of Pedagogic Sciences, Professor (Kazakhstan)

Doctor of Geographic Sciences, Professor (Ukraine)

Doctor of Sociological Sciences (Moldova)

Doctor of Art Criticism (CPR)

Doctor of Medical Sciences (Moldova)

Doctor of Philological Sciences, Professor (Azerbaijan)

Doctor of Technical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Doctor of Technical Sciences, Professor (Ukraine)

Doctor of Technical Sciences, Professor (Ukraine)

Doctor of Pedagogic Sciences, Professor (Armenia)

Doctor of Agricultural Sciences, Professor (Azerbaijan)

Doctor of Agricultural Sciences, Professor (Tajikistan)

Doctor of Technical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Doctor of Geographic Science, Professor (Kazakhstan)

Doctor of Pedagogic Sciences, Professor (Kazakhstan)

Candidate of Chemical Sciences (Georgia)

Candidate of Philological Sciences, Professor (Kazakhstan)

Candidate of Pedagogic Sciences, Professor (Ukraine)

Candidate of Economic Sciences, docent (Azerbaijan)

Candidate of Technical Sciences, docent (Armenia)

Candidate of Medical Sciences, docent (Ukraine)

Candidate of Technical Sciences (Uzbekistan)

Current challenges of modern science // Collection of Scientific Works - Pereiaslav, 2023. - Issue 5(81) – 56 p.

Language: українська, русский, english, қазақша, o'zbek, limba română.

UDC 001 (082)

BBC 72я43

A43

© NGO THE INSTITUTE FOR SOCIAL TRANSFORMATION, 2023

© Authors, 2023

TABLE OF CONTENTS

SECTION: ART STUDIES

Касенова Жанат Билибаевна, Болатова Эльмира Әлиханқызы (Семей, Қазақстан) СӘНДІК-ҚОЛДАНБАЛЫ ӨНЕРДІҢ КӨРКЕМДІК-ЭСТЕТИКАЛЫҚ ПАЙЫМДАЛУЫ	4
--	---

SECTION: MEDICAL SCIENCE

Bugaevsky K.A. (New Kakhovka, Ukraine) APPLICATION OF GYNECOLOGICAL MASSAGE AS A MEANS OF REHABILITATION FOR GYNECOLOGICAL PATHOLOGY.....	8
Бугаевский Константин Анатольевич (Новая Каховка, Украина) КОЛЛЕКЦИОННЫЕ МАТЕРИАЛЫ О ПАНДЕМИИ COVID-19 В МИРЕ: МАЙ 2023 ГОДА	14

SECTION: PEDAGOGY

Islamova Muhiba Umarovna, Homidova Nafisa Olimjonovna, Azamova Feruza Salaiddinovna, Sag'dullayeva Dilsuz Abdujamil qizi (Qarshi, O'zbekistan) IXTISOSLASHGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING CHOLG'U IJROCHILIGI BO'YICHA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI.....	23
Өмірзақ Арайлым Қыдырәліқызы (Алматы, Қазақстан) ГЕОГРАФИЯ ПӘНІНДЕГІ КАРТОГРАФИЯЛЫҚ ТАПСЫРМАЛАРМЕН ЖҰМЫС ЖАСАУДА ГЕОАҚПАРАТТЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДЫ ТИІМДІ ПАЙДАЛАНУ	26

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Mukhanbetzhanova A.A., Kudabayeva P.A. (Taraz, Kazakhstan) TO THE QUESTION OF SOCIO-CULTURAL COMPONENT OF FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATIVE COMPETENCE FORMATION.....	37
Rakhmatulla Zhanerke Amirbekovna (Almaty, Kazakhstan) MULTIMEDIA RESOURCES AS A MEANS OF DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE LISTENING SKILLS	43

SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT

Хасенов Еркебулан, Рабатұлы Мұхаммедрахым (Қарағанда, Қазақстан) РАЗРАБОТКА РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО БЕЗОПАСНОМУ ВЕДЕНИЮ РАБОТ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ И КРЕПЛЕНИИ ГОРНЫХ ВЫРАБОТОК В ЗОНАХ ПОВЫШЕННОГО ГОРНОГО ДАВЛЕНИЯ.....	48
---	----

SECTION: AGRICULTURAL SCIENCE

Bo'riyeva Dilorom Isroilovna, Rahimova Mahliyo Akramovna, Yaxshimurodova Ferangiz Otabek qizi (Buxoro, O'zbekiston) OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISH	53
---	----

SECTION: AGRICULTURAL SCIENCE

Bo'riyeva Dilorom Isroilovna
Buxoro davlat universiteti Biotexnologiya va oziq ovqat xavfsizligi kafedrası o'qituvchisi,
Rahimova Mahliyo Akramovna
Buxoro davlat universiteti Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrası o'qituvchisi
Yaxshimurodova Ferangiz Otabek qizi
Buxoro davlat universiteti Biotexnologiya fakulteti talabasi
(Buxoro, O'zbekiston)

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISH

Rezyume. Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohani rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, oziq-ovqat xavfsizli, qishloq xo'jaligi, agrobiznes, agrar sohasi, irrigasiya, meliorasiya.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga kelgani bugungi kunda mazkur muammoni jahon hamjamiyati uchun o'ta dolzarb va jiddiy tahdidlar qatoriga kiritilmoqda.

Yer yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklangani o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi yildan- yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi bo'lib va bu tafovut, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlarini jadal ishlab chiqarish uchun tegishli sharoitlar mavjud bo'lmagan mamlakat va hududlarda chuqurlashib bormoqda. Eng avvalo, atrof-muhitning ekologik jihatdan buzilishi hamon davom etayotgani, iqlim o'zgarishlarining oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlari, tez-tez takrorlanayotgan qurg'oqchilik va suv resurslari taqchilligi, jumladan, sug'orish uchun yerosti suvlarining tugab borayotgani, irrigasiya, meliorasiya va yerlarning unumdorligini qayta tiklashga yo'naltiriladigan investisiyalarning yetarli emasligi mazkur muammoni yanada keskinlashtirmoqda.

Yerlarning ekologik jihatdan buzilishi kimyoviy moddalar, mineral o'g'it va pestitsidlarni tinimsiz ishlatish oqibatida yanada kuchaymoqda. Bularning qatoriga urbanizasiya, ya'ni shaharlashuv jarayonlari, aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chishi bilan bog'liq muammolar ham qo'shilmoqda. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun ekin maydonlari sezilarli darajada qisqarib ketmoqda.

Demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat va huquqiy davlat vazifalarining markazida inson salomatligi, uning uzoq va barakali umr ko'rishini ta'minlash masalalari Agrar siyosatning iqtisodiyotning alohida mustaqil iqtisodiy siyosati sifatida ajratilishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlari, agrar munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Agrar siyosatda katta e'tibor faqat qishloq xo'jaligida emas, balki butun agrobiznesda ishlab chiqarish faoliyatining eng yuqori pirovard natijalariga, barqaror ishlab chiqarish o'sish sur'atlariga, uning samaradorligini oshirishga va qishloqni ijtimoiy

rivojlantirishga erishishga qaratiladi.

Alohida hudud yoki mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini baholash uchun quyidagilarni bajarish muhimdir: Har bir mamlakat agrar siyosatining asosiy muammosi oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilish hisoblanadi. O'zbekistonda ham mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini hal qilish 25 millionli xalqning muammolarini hal qilish maqsadlari uchun ham ahamiyatlidir. Shu jihatdan olganda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tashkil qiluvchilarni o'rganish va takomillashtirish agrar siyosat maqsadlarini amalga oshirish vositalaridan biri bo'lib ham hisoblanadi. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi muammosini oziq-ovqat mahsulotlari bozori hal qiladi. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim: g'alla va g'alla mahsulotlariga bo'lgan aholi talabini imkon qadar milliy ishlab chiqarish hisobiga qondirish; aholining meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, buning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ekologik jihatdan tozaligini ta'minlash, bu mahsulotlarning saqlanuvchanligini oshirish; mamlakat aholisini salomatlik uchun muhim ahamiyat kasb etadigan chorvachilik mahsulotlari bilan taimanlash. Buning uchun keyingi yillarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida chorva mollari bosh sonining kamayib ketishi natijasida aholining biroz yomonlashgan aholining go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini hal qilish borsida qator tadbirlar ishlab chiqildi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozori mamlakat aholisi uchun iste'mol tovarlari va ishlab chiqaruvchilar uchun esa mahsulotlarini qulay sotishga asoslangan munosabatlarni shakllantiruvchi iqtisodiy munosabatdir. Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini har bir tarmoq nuqtai-nazaridan tasniflash mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini mamlakat miqyosida tartibga solishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim: mamlakat ichki bozorida ishlab chiqarish hajmi va talabning hajmi; ishlab chiqarish salohiyati vaishlab chiqarishni o'zgartirish imkoniyatlari; mamlakat ichki bozoriga xorijdan kirishi mumkin bo'lgan tovarlar va mahsulotlar, ularning sifat darajasi, bahosi va shu kabi ko'rsatkichlari; aholining ichki bozor tovarlari va xorijiy tovarlarga munosabatlari; ma'lum davrga bozor talablarining o'zgarish imkoniyatlari.

Uzoq kelajakda insoniyat oziq-ovqat muammosini samarali yechish yo'larini ilmiy-texnika progressining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish asosida topadi. Zamonaviy sharoitlarda butun jahon hamjamiyatining kelishilgan siyosat va hamkorlikdagi amaliy harakatlar lozim bo'lib, kelgusida qishloq xo'jaligini rivojlantirish va har bir mamlakat darajasida oziq-ovqat fondini shakllantirish masalalari birgalikda hal qilinishi lozim.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida qishloq xo'jaligini rivojlantirishni tartibga solish dasturlari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanilmoqda: hududlarda mahsulot hajmi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish; qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish; qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash; qishloq xo'jaligi korxonalari moddiy-texnika bazasini yaxshilash va mustahkamlash, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar tarmog'ini yaratish; tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish; zarar ko'rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab quvvatlash.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini, fermer xo'jaliklarini shakllantirish jarayonlari davom ettirildi, tuproq

unumdorligini oshirish, seleksiya va urug'chilikni yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o'stirish chora-tadbirlari ko'riladi.

O'zbekistonda aholining oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni to'la qondirish, oziq-ovqat bozorida barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritadigan muhim tarmoq - agrar sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi - (darslik) - T.: TDIU, 2004. - 304 bet.
2. Abdug'aniyev A., Avdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 yil. - 288 bet.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. - Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. - T.: TDIU, 2004. 304 bet.

CURRENT CHALLENGES OF MODERN SCIENCE

LXXXI International scientific conference
26-27 May 2023

ISSUE 5(81)

Publisher allows authors to retain their copyrights.
No part of the publications may be reproduced without prior permission of the Publisher.
All authors take public responsibility for the content presented in the manuscript.

Executive Editor-in-Chief: PhD Oleh M. Vodiany
Design: A. Vovkodav

Founders: Non-governmental organization «The Institute for social transformation»
№1453789, 02/17/2016

Subscribe to print 5.06.2023.
Format 60x84 1/16.
Edition of 100 copies
Printed by: sole proprietor "Kravchenko Ia.O."
B01 №560015
03039, Ukraine, Kyiv, prosp. V. Lobanovskogo, 119
phone. +38 (044) 561-95-31

Editorial board address:
08400, Ukraine, Kyiv Region, Pereiaslav,
Bohdana Khmelnytskogo str, 18
phone: +38 (063) 5881858
<https://iscience.in.ua>
e-mail: iscience.in.ua@gmail.com

<https://buxdu.uz>



ISBN 978-83-66216-63-1



9 788366 216631

